

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**XUDAYQULOV BEHZOD ABBOSOVICH**

**ITALYAN VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZELOGIZMLARNING  
SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI  
(SON KOMPONENTLI IBORALAR MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

UO‘K: 811.131.1'373.7+811.512.133'373.7

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Xudayqulov Behzod Abbosovich**

Italyan va o‘zbek tillarida frazeologizmlarning semantik va lingvokulturologik tahlili (son komponentli iboralar misolida)..... 3

**Худайкулов Бехзод Аббосович**

Семантический и лингвокультурологический анализ фразеологизмов итальянского и узбекского языков (на примере фразеологизмы с числовым компонентом)..... 27

**Khudaykulov Behzod Abbasovich**

Semantic and linguacultural analysis of phraseologisms in the Italian and Uzbek languages (on the example of phraseologisms with the numerical components)... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**XUDAYQULOV BEHZOD ABBOSOVICH**

**ITALYAN VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZELOGIZMLARNING  
SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI  
(SON KOMPONENTLI IBORALAR MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2316 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining ([www.arm.samdchti.uz](http://www.arm.samdchti.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Oltiyev Temir Jonimboyevich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Shamaxmudova Aziza Furkatovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Radjabova Marjona Axmadovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2026-yil "17" aprel soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks (998966) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (62156 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 233-78-43, faks: (99866) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "2" aprel kuni tarqatildi.  
(2026-yil "2" aprel dagi 19 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD.), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida son komponentli frazeologizmlarni tadqiq etish dolzarbligi til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Frazeologizmlar tarkibidagi sonlar nafaqat miqdoriy ma'lumotlarni, balki xalqning madaniy kodi, tarixiy tajribasi va ramziy ma'nolarini ham o'zida mujassam etadi. Turli tillardagi sonlarning semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali milliy madaniyatlarning umumiy va o'ziga xos tomonlari aniqlanadi. Binobarin, bunday tadqiqotlar frazeologizmlarning kognitiv va semantik tuzilmasini hamda sonlarning turli madaniy kontekstlardagi ramziy vazifalarini chuqur o'rganish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Shu bois son komponentli frazeologizmlarni o'rganishning zarurati ushbu ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida son komponentli frazeologizmlarni o'rganish xalqlarning tafakkuri va madaniy merosini anglashda dolzarb muammolarni hal qilishni talab etadi. Frazeologizmlar tarkibidagi sonlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy tasavvurlari bilan bog'liq ramziy ma'nolarni ifodalaydi, ammo ularning lingvokulturologik xususiyatlari va zamonaviy til tizimidagi qo'llanilishi hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Jumladan, o'zbek va italyan tillaridagi frazeologizmlarni qiyoslash orqali sonning turli madaniyatlardagi ramziy funksiyalari va kognitiv yondashuvlari aniqlanishi mumkin. Bunday tadqiqotlar esa xalqaro muloqot va tarjima jarayonlarida semantik muvofiqlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish tizimini rivojlantirish globallashuv sharoitida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Ko'plab xorijiy davlatlar bilan aloqalar kuchayib borayotgani, jumladan, Italiya bilan munosabatlar rivojlanishi italyan tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirmoqda. Ushbu jarayonda xorijiy tillarni o'rgatish va frazeologik fondga xos birliklarni tadqiq qilish alohida o'rin tutadi. Xususan, frazeologik birliklarning lingvomadaniy va frazeo-semantik tahlili, ayniqsa, son komponentli frazeologizmlarni o'rganishga kompleks yondashuv talab etiladi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Biz o'z oldimizga rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish vazifasini qo'ydik<sup>1</sup>". Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy tilshunoslik til hodisalari va birliklarini, jumladan, ona tilimizni xorijiy tillar bilan taqqoslagan holda chuqur tadqiq etib, yangi yondashuvlar orqali ularning umumiy va xususiy masalalarini to'liq yoritishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan: "Bizning buyuk va dono xalqimiz o'z tarixida sharaflari sahifalarni ochishga qodir" // «Xalq so'zi» gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, №19 (7490).

Farmonlari, shuningdek, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo’yicha qo’shimcha tizimini chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o’qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori, va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining. I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, manaviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari» ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarni o’rganish masalasi ko’p yillardan beri mutaxassislarining diqqat markazida bo’lib kelmoqda. Hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda frazeologizmlarning shakllanishi, o’ziga xos belgilari, rivojlanish bosqichlari, stilistik xususiyatlari, etimologiyasi va birikish imkoniyatlari kabi masalalar batafsil tahlil qilingan<sup>2</sup>. Shuningdek, ayrim tillardagi iboralarni bir-biri bilan qiyoslash orqali frazeologik birliklarning umumiy va o’ziga xos jihatlari o’rganilgan. Xususan, italyan tilshunoslaridan olimlaridan F.Leka, Z.Simoni, B.M. Quartu<sup>3</sup> kabilar ikki tilli frazeologik lug’atlar ishlab chiqishgan.

Frazeologiyaning fan sifatida shakllanishiga o’zbek tilshunos olimlari ham salmoqli hissa qo’shganlar. Jumladan, Sh.Rahmatullaev, H.Berdiyev, Ya.D. Pinxasov, L.I.Royzenzon, M.Umarxo’jaev, B.Yo’ldoshev, A.E.Mamatov, A.Mamatov, A.M.Bushuy, M.Sodiqova, Q.M.Hakimov, Sh.R.Usmonova, M.K. Xalikova, K.Bozorboev, Sh.Almamatova va M.Vafoeva<sup>4</sup> kabi tadqiqotchilar

<sup>2</sup>Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – С.416; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С.140-161; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – С. 336; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд-во Ленинградского университета, 1963. – С.208; Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – Москва: Высшая школа, 1970. – С.199; Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие, источники и лексикографическая разработка. – Ленинград: Наука, Ленингр. отд-ние, 1970. – С.263; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Учебник для ин-тов и фак. иностр. яз. - 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Высшая школа, 1986. – С. 296; Архангельский В.Л. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов: Изд-во РГУ, 1964. – С. 315; Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание (избранные работы). – Москва, 1977. – С.224; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Изд. 3-е, испр. и доп. – М.: Высшая школа, 1985. – С. 160; Skytte.G. "Phraseologie / Fraseología". In G. Holtus et al. (eds.), *Lexicon der Romanistischen Linguistik (LRL)*. Tübingen, Max Niemeyer Verlag, 1988. P.75–83.; Navarro, C. *Aspectos de fraseología contrastiva*. Verona: Fiorini, 2008. – P.12-13.

<sup>3</sup>Msc. Manjola Zaçellari, Msc. Muhamed Dervishi. The Relations of Albanian and Italian Language in Phraseology//Journal of Educational and Social Research MCSER Publishing, Rome-Italy. Vol. 3 No. 7 October, 2013. – p. 498.

<sup>4</sup>Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 1966. – Б.46; Бердиёров Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарканд,

frazeologizmlarning turli muammolarini o‘z tadqiqotida olib chiqqan. E’tirof etilgan tadqiqotlar frazeologizmlar haqida keng nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, ularning ayrim masalalarini chuqurroq o‘rganish zarur. Ayniqsa, bu holat, italyan va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning semantik va lingvokulturologik tadqiqotiga tegishli bo‘lib, son komponentli iboralar misolida mazkur birliklarning semantik va madaniy kodlarini tahlil qilishni talab etadi. Bu yondashuv ikki til va madaniyat o‘rtasidagi umumiylik va o‘ziga xosliklarni aniqlashda yechimini kutayotgan masaladir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” yo‘nalishida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** italyan va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologizmlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy-tipologik metod asosida ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

italyan va o‘zbek tillarida frazeologizmlarning lingvokulturologik, semantik xususiyatlarini chog‘ishtirish orqali frazeologik birliklarning til leksik tizimi va frazeologiyada namoyon bo‘ladigan farqli jihatlarni ko‘rsatuvchi chegaralarini aniqlash;

noqardosh tillar doirasida frazeologizmlar ifodalanishining lingvomadaniy jihatlari, ularning struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik metod asosida dalillash;

italyan va o‘zbek tillariga xos bo‘lgan frazeologik birliklarning lisoniy, lingvokulturologik xususiyatlari va semantik ko‘lamda ilk marotaba italyan tilidagi son komponentli frazeologizmlarning semantik-lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish;

italyan tilidagi son komponentli frazeologik iboralar tizimga solingan, italyan va o‘zbek xalqlarining milliy-madaniy o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologizmlarning milliy o‘ziga xosliklarini aniqlashtirishdan iborat.

---

1977. – Б.38; Пинҳасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 55-65.; Ройзензон Л.И. Фразеологизация // Труды Самар.гос.ун. Вып. 113, 1961. – С.158-164. Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1972. – С.27; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1993. – Б.297; Маматов А.Е. Ҳозирги замон ўзбек тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент. Фан, 1991. – Б.276; Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри дисс. ... - Тошкент. 1999. – Б.312; Бушуй А. Формирование паремийного образа действительности // Иностранная филология: язык, литература, образования. – 2016. № 2 (59). – С.5-24.; Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати. – Тошкент, 1993. – Б.259; Ҳакимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қолипиди фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б.24; Усмонов Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. ном. дисс. ... – Самарканд, 1998. – Б.160; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине мира (на материале русского и узбекского языков): дисс.... канд. филол. наук. – Тошкент, 1999. – С.142; Бозорбоев Қ.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарканд, 2001. – Б.22; Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 23; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б.26.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida italyan va o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan, izohli frazeologik lug‘atlarda mavjud son komponentli frazeologizmlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** italyan va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologizmlarning semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada umumiy nazariy xususiyatlarni tavsiflash maqsadida deskriptiv tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil va semantik komponentlarning kontekstual tahlili usullaridan; o‘ziga xos farqlanishlarni aniqlash uchun esa komponent tahlil, chog‘ishtirma tahlil, madaniyatlararo tahlil hamda etimologik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

italyan va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlarini ilk bor qiyosiy-tipologik, kontekstual-semantik va komponent tahlil yondashuvlari asosida tizimli ravishda chuqur o‘rganish natijasida ularning til leksik tizimi va frazeologik qatlamida namoyon bo‘ladigan leksik-semantik va frazeologik maqomi, har ikki tildagi frazeologizmlarda son komponenti ko‘pincha miqdoriy belgi emas, balki ramziy, obrazli va mental ma‘nolarni ifodalovchi element ekanligi dalillangan;

son komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy xususiyatlari aniqlanib, son komponentning semantik markazlik va obrazlilikni kuchaytiruvchi funksiyalari belgilangan va mazmun jihatidan ular miqdor-ko‘plik, kamlik-ozlik, vaqt-davomiylik, tartib-ketma-ketlik va sifat-holat guruhlariga tasniflanib, madaniy mazmun doirasida xalq mentaliteti va ramziy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

son komponentli frazeologik birliklarning semantik-funksional roli aniqlanib, ular xalq til tafakkurida miqdor, sifat-holat, vaqt va tartib ramzlarini ifodalovchi konseptual vosita sifatida shakllangani ilmiy asosda dalillangan, shuningdek, tadqiqotda italyan tilida sonlarning frazeologik birliklarda ko‘proq emotsional-estetik mazmuni, o‘zbek tilida esa ijtimoiy-kognitiv qadriyatlarni ifodalashi isbotlangan;

italyan va o‘zbek tillaridagi toq va juft son komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari tizimli tahlil qilinib, sonlarning xalq tafakkurida baxt, muvozanat, to‘liq va noaniqlik kabi konseptlarni ifodalovchi vosita sifatida shakllangani dalillangan hamda frazeologizmlarning xalq qadriyatlaridagi ramziy va semantik o‘rni ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qiyosiy-tipologik, kontekstual-semantik va komponent tahlil yondashuvlari asosida lingvomadaniy va semantik ko‘lamda italyan va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning semantik-lingvokulturologik xususiyatlari ilk bor ilmiy asosda aniqlangan;

italyan va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik iboralar tizimga solingan;

italyan va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning milliy o‘ziga xosliklari (toq va juft sonlarga berilgan ijobiy va salbiy baholash, madaniy ramzlar orqali ifodalanishi) ilmiy asosda aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** chiqarilgan xulosalarinig tizimlashtirish, tasniflash, semantik tahlil kabi usullar bilan asoslanganligi, muammoning aniq qo'yilgani, italyan va o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarga xos bo'lgan belgilarni dalillashda ilmiy-badiiy manbalarga tayanilgani, nazariy fikr va xulosalarinig amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati italyan va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini, xususan, son komponentli iboralar misolida

o'rganish orqali frazeologiya, chog'ishtirma tilshunoslik va madaniyatlararo muloqotlarni o'rganuvchi yondosh sohalardagi ilmiy-nazariy muammolarni hal qilishga asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda keltirilgan nazariy umumlashma va tahlillardan «Lingvomadaniyatshunoslik», «Chog'ishtirma tilshunoslik», «Tarjima nazariyasi», «Frazeologiya», «Mamlakatshunoslik», «Madaniyatlararo muloqot» kabi fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma va majmualar yaratishda; italyancha-o'zbekcha son komponentli frazeologik birliklar lug'atini tuzishda hamda frazeologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi,** italyan va o'zbek tillari son komponentlarga ega frazeologizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

italyan va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlari qiyosiy-tipologik, kontekstual-semantik va komponent tahlil yondashuvlari asosida ularning til leksik tizimi va frazeologik qatlamida namoyon bo'ladigan leksik-semantik va frazeologik maqomi ilmiy asosda dalillanishiga doir tavsiya va xulosalaridan 2020-2023-yillarga bajarilgan AM-FZ-201908172. "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024 - yil 03 - iyuldagi № № 04/1-1759 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha o'zbek tilidagi son komponentli frazeologizmlarning lingvokulturologik hamda semantik xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan boyitilgan;

son komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy xususiyatlari aniqlanib, son komponentning semantik markazlik va obrazlilikni kuchaytiruvchi funksiyalari belgilanganligi hamda madaniy mazmun doirasida xalq mentaliteti va ramziy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlariga doir tavsiya va xulosalardan 2019-2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10. "O'zbek tilida neyning: me'yoriy huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024 - yil 03 - iyuldagi № 04/1-1760 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha son komponentli frazeologik birliklarning miqdor-ko'plilik, kamlik-ozlik, vaqt-davomiylik, tartib-ketma-ketlik va sifat-holatga doir tasnifiy guruhlari va xususiyatlari tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar, amaliy taklif va tavsiyalar muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan;

son komponentli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari aniqlanganligi hamda frazeologizmlarga xos lingvomadaniy xususiyatlarga doir tavsiya va xulosalardan Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi, Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasi doirasida o‘quv jarayoni va xalqaro loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 8-iyundagi № 1206/02 sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha son komponentli frazeologizmlarning lingvokulturologik hamda semantik xususiyatlariga oid ma’lumotlarni nazariy va amaliy jihatdan boyitish imkonini bergan;

italyan va o‘zbek tillaridagi toq va juft son komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlariga doir tavsiya va xulosalaridan «O‘zbekiston» teleradiokanalida namoyish etiladigan «Ijod zavqi», «Ta’lim va taraqqiyot», «Millat va ma’naviyat» eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan. (O‘zbekiston teleradiokanalining 2025-yil 01-maydagi № 26-36-977 sonli sonli ma’lumotnomasi). Natijada, italyan, o‘zbek frazeologik iboralarining milliy-madaniy jihatdan o‘xshash va farqli tomonlarini ochib berishda olib borgan tadqiqotning natijalarida keltirilgan ma’lumotlar ommalashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shulardan 3 tasi Respublika ilmiy-amaliy anjumanlar, 4 tasi xorijiy xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etildi, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (shu jumladan, 7 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etildi.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriylanishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tilshunoslikda frazeologik tizimni o‘rganishning nazariy asoslari**” deb nomlangan. Birinchi bob quyidagi fasllarni o‘z ichiga oladi: “*Frazeologizm tushunchasining mohiyati va uning terminologik apparati*”, “*Jahon va o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganilish tarixi*”.

“Frazeologiya” atamasi ba’zi manbalarda yunoncha phrasis (φράσις) (“aloqa qilish usuli”) yoki qadimgi lotincha *phrasis* (“diksiya”)<sup>5</sup> dan kelib chiqqan deb qayd etilsa, boshqalarida, bu atama *phrāzein* (φράζειν, “aloqa qilish, ko‘rsatish”)<sup>6</sup> bilan

<sup>5</sup> <https://www.etymonline.com/word/phrase>

<sup>6</sup> <https://www.dwds.de/wb/etymwb/Phraseologie>

ham bog‘liq bo‘lishi ehtimoli bor. Shuni ta’kidlash lozimki, ushbu atama asrlar davomida rivojlanib, uning ma’nosi qisman o‘zgargan va kengaygan. Demak, «Frazeologiya» atamasi o‘zining tarixiy ildizlari bilan yunon va lotin tillariga borib taqaladi va asrlar davomida rivojlanib, turli ma’no va qo‘llanilish ko‘lamiga ega bo‘lgan.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «*frazeologizm*» quyidagicha ta’riflanadi:

*Frazeologizm* [yun. *phrasis* – ifoda, jumla + *logos* – so‘z] tlsh. Tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatuvchi, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik<sup>7</sup>.

Ilmiy adabiyotlarda «*frazeologizm*», «*frazeologik birlik*», «*frazema*» va «*idioma*» kabi tushunchalarning o‘xshashligi bo‘yicha turli qarashlar mavjud. Xususan, *frazeologizm*, frazeologik birlik, frazema – ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi<sup>8</sup>. Ushbu masalani o‘rganar ekan, barcha tadqiqotchilar bu tushunchalarning ma’nolarini aniq ajratib ko‘rsatmaydi.

“*Frazeologiya*” atamasi turkiyshunoslikda dastlab “*jumla*” yoki “*gap*” ma’nosida ishlatilib, uning kelib chiqishi “*fraza*” so‘ziga borib taqaladi<sup>9</sup>.

Italiyan tiliga kelsak, “*fraseologia*” atamasi “*frase*” atamasi bilan bog‘liq bo‘lib, u Vocabolario degli Accademici della Crusca<sup>10</sup> lug‘atining turli nashrlarida uchraydi. Ushbu lug‘atda shuningdek, “*fras[i] latin[e]*”<sup>11</sup> [lotin iboralari], “*locuzioni*”<sup>12</sup> [ifodalar] va “*maniere latine*” [lotin frazeologiyalari] kabi atamalar ham mavjud. Bundan ko‘rinib turibdiki, qadimda “*frazeologiya*” tushunchasi turli shaklda ishlatilgan.

Frazeologizm atamasini shakllanish tarixini quyidagi jadval orqali umumlashtirdik:

### 1-jadval.

#### “Frazeologizm” tushunchasini ifodalovchi atamalar tarixi

№	Atama	Davr	Izoh
1.	<i>Phraseologia</i>	XVI asr	Fraza, idiom va kollokatsiyalar to‘plamini ifodalash uchun ishlatilgan atama.
2.	<i>Phrasiologia</i>	XVII asr	“ <i>Phraseologia</i> ” atamasining keyinchalik paydo bo‘lgan varianti.
3.	<i>Phrasis</i>	1496 yil	Dastlab “gapirish usuli” yoki “fikrni ifodalash uslubi” ma’nosini bildirgan.
4.	<i>Phrase</i>	XVIII asr	18-asrda fransuz tilida “mazmunsiz” yoki “bo‘sh iboralar”ni anglatgan.
5.	<i>Fraseologia</i>	XVII asr	“ <i>Phrase</i> ” bilan bog‘liq bo‘lib, italyan tilida ishlatilgan.
6.	<i>Phraseologie</i>	XVII-XVIII asr	Fransuz-nemis lug‘atlarida va ko‘p tilli asarlarda qo‘llangan atama.
7.	<i>Phrasiologia Latina</i>	1713 yil	Lotin frazalari va iboralari bo‘yicha grammatik fan sifatida belgilangan.

<sup>7</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 364.

<sup>8</sup>F harfi / O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – B. 253. [https://arm.samdchti.uz/library/book\\_view/357](https://arm.samdchti.uz/library/book_view/357)

<sup>9</sup>Казым-бек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск II. - Казань, 1846 – С. 120.

<sup>10</sup><https://accademiadellacrusca.it/it/contenuti/vocabolario-1612/7449>

<sup>11</sup><https://accademiadellacrusca.it/en/contenuti/the-third-edition-of-the-vocabolario-1691/7528>

<sup>12</sup><https://accademiadellacrusca.it/en/contenuti/the-third-edition-of-the-vocabolario-1691/7528>

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, “frazeologizm” tushunchasining tarixiy shakllanishini o‘rganish, til rivojlanishining bosqichlarini, madaniy va ijtimoiy kontekstlarning til strukturasi va ma’nosiga ta’sirini anglashda muhim nazariy va amaliy asos yaratadi. Ayniqsa, Italiya tilida frazeologizm atamasining shakllanishi uning uzoq tarixiga guvohlik beradi. Bu jarayon hududiy va madaniy xilma-xillikni aks ettiruvchi turli ilmiy asarlar va lug‘atlarda o‘z ifodasini topgan. Quyidagi jadvalda Italiyada frazeologizm atamasining rivojlanishi, uning mualliflari va ma’noviy xususiyatlari davrlar bo‘yicha tizimli tarzda taqdim etilgan bo‘lib, frazeologik tadqiqotlar va ularning ahamiyatini chuqurroq tushunishga yo‘l ochadi:

**2-jadval.**

### Italiyan tilida frazeologizm atamasining shakllanishi

№	Atama	Davr	Muallif	Izoh
1.	<i>Tuscan “phrase”</i>	1566-yil	Montemerlo	Toskana frazeologiyasining dastlabki namunasi, qotib qolgan iboralarni o‘z ichiga oladi.
2.	<i>Sicilian-Tuscan phraseologies</i>	1840-1865-yillar	Caglia Ferro Ruibal, Castagnola	Sitsiliya-Toskana frazeologiyalari, hududiy iboralar va maqollardan tashkil topgan.
3.	<i>Venetian phraseology</i>	1851-1852-yillar	Mutinelli	Venetsiya frazeologiyasi bo‘yicha ilmiy ishlar, jumladan maqollar va frazemalar yoritilgan.
4.	<i>Piccola fraseologia italiana</i>	1889-yil	Percolla	Sitsiliya maqollari va frazemalarini o‘z ichiga olgan kichik frazeologik lug‘at.
5.	<i>Fraseologie</i>	19-asr	Bartoli (1826), Lissoni (1836), Percolla (1870, 1889), Ballezio (1898-1902)	Har xil lug‘atlarni o‘z ichiga olgan “fraseologie”, Italiya birlashuvi natijasida umumiy tilni tarqatish uchun yaratilgan.

Tilshunoslikda frazeologik tizimni o‘rganishning nazariy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar quyidagi xulosalar bilan yakunlandi:

Frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar bugungi global dunyoda turli til va madaniy jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi;

Frazeologiya fanining rivojlanish tarixini xronologik jihatdan uch davrga ajratib o‘rganish mumkin:

- *Birinchi davr* XVIII asrning o‘rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda frazeologiya ko‘proq amaliy lug‘atshunoslik, ya’ni leksikografiyaning obyekt bo‘lgan. Asosiy e’tibor frazeologik birliklarni lug‘atlarda qayd qilish (kodifikatsiyalash), ularning ma’nosini va etimologiyasini izohlash hamda talqin etishga qaratilgan edi.

- *Ikkinchi davr* XX asrning 30-50-yillarini qamrab oladi va bu davr frazeologiyaning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda frazeologiya o‘zining nazariy asoslarini mustahkamlab, lingvistikaning mustaqil sohasi sifatida e’tirof etilgan.

- *Uchinchi davr* XX asrning 60-yillaridan boshlab hozirgi kungacha davom etmoqda. Ushbu davrda frazeologiya fani yanada chuqurroq o‘rganila boshladi, ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalar va metodik yondashuvlar qo‘llanilib,

frazeologik birliklarning tahliliga keng ko‘lamda yondashuv shakllandi. Bu bosqich, shubhasiz, frazeologiyaning lingvistika fanidagi ahamiyatini yanada oshirdi va uni boshqa fanlar bilan yaqinlashtirdi.

Izlanishlar frazeologiya masalasi jahon tilshunosligida, xususan, Yevropa tilshunosligida yaxshi o‘rganilganini ko‘rsatdi. Turkiy tilshunoslikdagi yutuqlar ko‘proq ana shu tilshunoslik ta'siri bilan bog'liqdir. Qayd etish joizki, mazkur tilshunosliklar namoyandalari o‘z ishlarida frazeologik birliklarning maqomi masalasiga alohida ahamiyat berganlar;

– Izlanishlar frazeologiya masalasi jahon tilshunosligida, xususan, Yevropa tilshunosligida yaxshi o‘rganilganini ko‘rsatdi. Turkiy tilshunoslikdagi yutuqlar ko‘proq ana shu tilshunoslik ta'siri bilan bog'liqdir. Qayd etish joizki, mazkur tilshunosliklar namoyandalari o‘z ishlarida frazeologik birliklarning maqomi masalasiga alohida ahamiyat berganlar;

– Boshqa tillar kabi italyan tilida ham frazeologik iboralar mavzusi qiziq va munozarali mavzulardan biri bo‘lib, o‘rganilayotgan xorijiy tilda so‘zlashadigan insonlarning hayot tarzini, urf – odatlarini ifodalash uchun muhim manbaalardan biri hisoblanadi. Bu esa italyan tilini o‘rganishdan tashqari italiyanlarning frazeologik iboralarni qo‘llash darajasi va ularni kundalik hayotiga nechog‘lik bog‘liqligini tushinishga ham yordam beradi;

Ishning ikkinchi bobi “**Frazeologizmlarning komponent tahlili va son komponentli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari**” deb nomlangan. Ikkinchi bob quyidagi qismlardan tashkil topgan: “*Italyan va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning tarkibiy tahlili*”, “*Italyan va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologizmlarning tasnifi va semantik xususiyatlari*”. Frazeologizm komponenti deganda biz semalar tizimi sifatida sifat o‘zgarishlariga uchragan va so‘zning tashqi, rasmiy ajratilishini saqlab qolgan, belgi yoki a‘zo vazifasini mustaqil bajara olmaydigan ma’noga ega bo‘lgan muhim yoki yordamchi so‘zni tushunamiz.

Italyan tilida - frazeologizmlarni komponent tarkibiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin:

- *Kishi a‘zolarining nomlari (somatizmlar) ishtirokida tuzilgan frazeologizmlar*
- *Zoonim komponentli frazeologizmlar*
- *Rang – tus nomlari ishtirok etgan frazeologizmlar*
- *Famiglia”komponentli frazeologizmlar*
- *Vaqt-“tempo” so‘zi ishtirokidagi frazeologizmlar*
- *Terra-yer so‘zi ishtirok etgan frazeologizmlar*
- *Parola va parlare” komponentli frazeologizmlar*
- *Pace - tinchlik so‘zi ishtirokidagi frazeologizmlar*
- *Non- Pane so‘zi ishtirokidagi frazeologizmlar*
- *Fe’l komponentli frazeologizmlar*
- *Italyan tilidagi sifat komponentli frazeologizmlar*
- *Predloglar ishtirokida shakllangan frazeologizmlar*
- *Son komponentli frazeologik iboralar va b.q.*

Masalan: *Kishi a‘zolarining nomlari (somatizmlar) ishtirokida tuzilgan frazeologizmlar: In un batter d’occhio → Tez orada, ko‘z yumib ochguncha.; Tenere*

*d'occhio* → Ko‘z-quloq bo‘lmoq, nazorat ostiga olmoq.; *Dare nell'occhio*<sup>13</sup> → e‘tiborni tortmoq, nazarga tushmoq.

Yoki *Zoonim* komponentli frazeologizmlar: *Avere un cervello di gallina* - Juda ahmoq.; *Zampa di gallina* - Xunuk yozadigan/xati yomon;

*Andare a letto con le galline* - Uxlashga barvaqt borish.; *Aver grilli per la testa* - G‘alati g‘oyasi/fikri bo‘lmoq.; *Prendere lucciole per lantern* - Kichik bir narsani katta bir ahamiyatli narsaga almashtirish; *Lento come una lumaca* - Juda sekin.

Zamonaviy tilshunoslikda son nafaqat grammatik kategoriya, balki dunyoning lingvistik olamining lingvomadaniy va etnolingvistik tarkibiy qismi sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Raqamli simvolizmni o‘rganish bizga til jamiyatlari tomonidan atrofda dunyoning majoziy-assotsiativ va intellektual rivojlanishining xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Buning sababi shundaki, raqamlar raqamli kodning elementlari sifatida koinotni, odamni va meta-tavsif tizimining o‘zini tasvirlaydi.

*O‘zbek tilidagi son komponentli frazeologik iboralar:*

*“Bir” soni ishtirok etgan frazeologik iboralar:*

*Bir boshdan*<sup>14</sup> – Boshlanishidan, tartibi bilan. (Bir chekkadan).; *Bir boshini ikkita qilmoq* – Boshi ikkita bo‘ldi.; *Bir yostiqa bosh qo‘ymoq* – Oilaviy hayot kechirmoq.; *Bir yoqadan bosh chiqarmoq*<sup>15</sup> – Hamjihat/yakdil bo‘lmoq.;

*“Ikki” soni ishtirok etgan frazeologik iboralar:*

*Ikki barmog‘ini burniga tiqib* – Nafs bilan.; *Ikki bukilib* – Ortiq darajada egilib.; *Ikki gapning birida* – Gap davomida qayta – qayta gapirmoq.; *Ikki dunyoda* - Ikki dunyoda ham.; *Ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib* – Intizorlik bilan.; *Ikki oyog‘ini bir etikka suqmoq* – O‘z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq.; *Ikki oyog‘ini tirab olmoq* – Qaysarlik qilmoq; *Ikki og‘iz*<sup>16</sup> – Ozgina;

*“To‘rt” soni ishtirok etgan frazeologik iboralar:*

*To‘rt ko‘z bilan* – Intizorlik bilan.; *To‘rt ko‘z bo‘lib* – Ko‘zi to‘rt bo‘ldi.; *To‘rt og‘iz* – Bir oz.; *To‘rt tarafi qibla* – Qayoqqa xohlarsa, ketaversin.; *Uch – to‘rt og‘iz* – To‘rt og‘iz<sup>17</sup>.

*“Yetti” soni ishtirok etgan frazeologik iboralar:*

*Yetti bukilib* – Ikki bukilib.; *Yetti yoshdan yetmish yoshgacha.*; *Yetti uxlab tushga kirmaslik* – Xayoliga kelmaslik.; *Yetti o‘lchab bir kesmoq*<sup>18</sup> – Nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutmoq.

Tadqiqotimizda “bir” dan “o‘n” gacha bo‘lgan sanoq sonlardan yasalgan o‘zbek tilidagi eng keng tarqalgan 40 ga yaqin frazeologizmlar tahlilga tortilgan Tahlil natijalari quyidagi chizmada aks ettirilgan:

<sup>13</sup> <https://dizionario.internazionale.it/parola/dare-nellocchio>


<sup>14</sup> Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati: – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.79.

<sup>15</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/bosh>

<sup>16</sup> Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati: – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.195.

<sup>17</sup> Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati: – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.518.

<sup>18</sup> Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati: – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.551.



1-rasm.

3-jadval.

**O'zbek tilida sonlar ishtirok etgan iboralarning italyan tiliga tarjimasini:**

O'zbek tilidagi ibora	Italiyan tiliga tarjimasini
Bir boshdan – Boshlanishidan, tartibi bilan. (Bir chekkadan).	Da zero/Dall'inizio, in ordine.
Bir yostiqa bosh qo'ymoq – Oilaviy hayot kechirmoq.	Vivere una vita familiare.
Bir yoqadan bosh chiqarmoq – Hamjihat/yakdil bo'lmoq.	Riunirsi – Essere d'accordo
Bir yoqda tursin – U yoqda tursin.	Lasciatelo stare da parte.
Bir yoqli bo'lmoq – Hal bo'moq.	Essere una soluzione.
Bir – ikki og'iz – Ikki og'iz.	Quattro parole
Bir – ikki shingil – O'zgina	Un po'
Bir kesak bilan ikki qarg'ani/quyonna urmoq – Ayni bir vaqtda ikki narsani ko'zlab ish tutmoq.	Prendere due piccioni con una fava - Agire avendo in mente due cose contemporaneamente.
Bir pul – Qadr – qiymatsiz	Senza valore
Bir so'zi ikkita bo'lmadi – Aytgani bajarildi.	Una parola non vale due: ciò che ha detto è stato fatto.
Bir so'zini ikkita qilmaslik – Aytganni bajarish.	Non ripetere due volte la stessa parola.
Bir chimdim – O'zginagina.	Solo un po'.
Bir shingil – O'zgina.	Un pochino.
Bir qulog'idan kirib, ikkinchi qulog'idan chiqib ketmoq.	Entra da un orecchio ed esce dall'altro.
Yetti yoshdan yetmish yoshgacha.	Dai sette ai settant'anni.
Yetti o'lchab bir kesmoq – Nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutmoq.	Misura sette volte e tagliane una - Agisci con la massima cautela.
Ikki bukilib – Ortiq darajada egilib.	Doppia piega – Eccessivamente piegato.
Ikki ko'zi to'rt bo'lib – Intizorlik bilan.	Non vedere l'ora
Ikki oyog'ini bir etikka suqmoq – O'z fikrining amalga oshirishini qaysarlik bilan talab qilmoq.	Mettere due piedi in uno stivale
Ikki oyog'ini tirab olmoq – Qaysarlik qilmoq	Essere testardo
Ikki og'iz – O'zgina	Un po'
Ikki ellik – Qisqagina.	Solo un po'.
Ikki o'rtada – Ikki tarafning o'rtasida qolmoq.	Essere tra due parti.
Ikki qadam narida	A due passi
To'rt og'iz – Bir oz.	Un po'.
To'rt tarafi qibla – Qayoqqa xohlansa, ketaversin.	Lascialo andare dove vuole.
Uch – to'rt og'iz – To'rt og'iz.	Quattro parole
Yetti o'lchab bir kesish	Contare fino a dieci

Italiyan tilidagi keng tarqalgan *son komponentli frazeologik iboralar*

• *Dare i numeri*: Soʻzma-soʻz tarjimada: Sonlar/raqamlarni bermoq – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – *Oʻzini ahmoqdek tutmoq, maʼnosiz narsalarni aytmoq* degan maʼnolarni ifodalaydi.

• *Avere i numeri*: Soʻzma-soʻz tarjimada: Sonlar/raqamlarga ega boʻlmoq – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – *Qobiliyatli boʻlmoq, layoqatli boʻlmoq* aytmoq degan maʼnolarni ifodalaydi.

• *Partire da zero*: Soʻzma-soʻz tarjimada: Noldan joʻnamoq – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – *Hech kimni yordamisiz, boshidan/noldan boshlamoq* degan maʼnolarni ifodalaydi.

• *Sparare a zero*: Soʻzma-soʻz tarjimada: Nolga otmoq – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – *Birovni boʻrttirib ayblab unga tashlaninsh* degan maʼnolarni ifodalaydi.

• *Essere il numero uno*<sup>19</sup> - Soʻzma-soʻz tarjimada: Bir raqami boʻlmoq – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – *Biror bir sohada eng yaxshi/ilgʻor boʻlish* degan maʼnolarni ifodalaydi.

• *Due e quattro con il significato di “un po”* - ikki va toʻrt sonining “ozgina/kamgina” maʼnolarini ifodalaydi. Ibora sifatida:

*Ci prepariamo due spaghetti?* – Ozroq spaghetti tayyorlaymiz.

*Abbiamo fatto quattro chiacchiere al bar* – Barda ozingina suhbatlashdik.

*Ho fatto due passi per sciogliere le gambe* – Oyoqni chigilini yozish uchun bir-ikki qadam yurdim/ozroq sayr qildim.

*Alla festa c'erano solo quattro gatti* (poche persone) – Bayramda ozingina odam bore edi; kabi maʼnolarni ifodalaydi.

• *Prendere due piccioni con una fava* - Soʻzma-soʻz tarjimada: Bitta loviya bilan ikkita kaptarni olmoq. Ibora sifatida – *Bir urinish bilan ikki natijaga erishmoq*. maʼnosini ifodalaydi.

• *Su due piedi* - Soʻzma-soʻz tarjimada: Ikki oyoqda – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – *Ogohlantirmasdan, darhol* degan maʼnolarni ifodalaydi.

Masalan: *Non posso partire su due piedi* – Hoziroq joʻnab ketolmayman.

• *Prendere il coraggio a due mani* - Soʻzma-soʻz tarjimada: Jasoratini ikki qoʻlga olmoq – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – *Qatʼiylik bilan harakatga oʻtmoq* degan maʼnoni ifodalaydi.

• *Tenere il piede in due scarpe – tenere due piedi in una scarpa* - - Soʻzma-soʻz tarjimada: Ikki oyogʻini bir etikka solmoq – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – *Ikki xil imkonoyatni tanlashda, bir qarorga kela olmay, noaniq harakatlanishda ishlatiladi*. degan maʼnoni ifodalaydi.

Turli xalqlar frazeologik birliklarning har jihatdan oʻxshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoni fikr bayon qilish meʼyorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror soʻz birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat boʻlib qoladi.

Tadqiqotimizda “bir” dan “oʻn” gacha boʻlgan sanoq sonlardan yasalgan

<sup>19</sup> <https://context.reverso.net/traduzione/italiano-inglese/essere+il+numero+uno>

italyan tilidagi 40 ga yaqin frazeologizmlar tahlilga tortilgan Tahlil natijalari quyidagi chizmada aks ettirilgan.



2-rasm.

Italyan tilidagi frazeologizmlarni tahlil qilayotganda, biz son komponentli frazeologizmlarning quyidagi struktur xususiyatlariga duch keldik.

4-jadval.

Frazeologizmlarning struktur turlari:	Misollar:
<i>Verbo+art+Num</i>	Dare i numeri
<i>Verbo+art+Num</i>	Avere i numeri
<i>Verbo+art+Num</i>	Partire da zero
<i>Verbo+art+Num</i>	Sparare a zero
<i>Verbo+art+N+Num</i>	Essere il numero uno
<i>prep+Num+N</i>	Su due piedi
<i>Verbo+ art +N<sub>1</sub>+ prep+Num+ N<sub>2</sub></i>	Prendere il coraggio a due mani
<i>prep+Num+N</i>	A tre cotte
<i>Verbo+prep+Num</i>	Farsi in quattro
<i>prep+Num<sub>1</sub>+congiun+Num<sub>2</sub></i>	In quattro e quattr'otto
<i>Verbo+art+Num+N</i>	Sbandierare ai quattro venti
<i>Verbo+N+prep +Num</i>	Fare il diavolo a quattro
<i>Verbo+prep+Num+N</i>	Parlare a quattr'occhi
<i>Verbo+art+Num</i>	Dare il cinque
<i>Verbo+art+Num+N</i>	Avere il sesto senso
<i>Verbo+prep+Num+N</i>	Essere al settimo cielo
<i>Verbo+ Num+N</i>	Sudare sette camicie
<i>Verbo<sub>1</sub>+ Num<sub>1</sub>+ Verbo<sub>2</sub>+ Num<sub>2</sub></i>	Fatto trenta, facciamo trentuno
<i>Verbo+art+Num</i>	Fare un quarantotto

Frazeologizmlarning komponent tahlili va son komponentli frazeologizmlar semantik xususiyatlari tadqiqi quyidagi xulosalar bilan yakunlandi:

- frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topib, qat'iy leksik-grammatik tarkibga ega. Ularning tarkibiy qismlari almashtirilmaydi, bu esa ularning barqarorlik xususiyatini ta'minlaydi.

- frazeologizmlar ma'no yaxlitligiga ega bo'lib, ular tarkibiy qismlarining ma'nolaridan mustaqil ravishda ko'chma ma'no hosil qiladi. Ko'chma ma'no ularning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

- zamonaviy tilshunoslikda son nafaqat grammatik kategoriya, balki dunyoning lingvistik olamining lingvomadaniy va etnolingvistik tarkibiy qismi sifatida ham ko'rib chiqiladi.

Turli tillarda sonlarni o'rganish va ularni qiyoslashdan boshlangan tadqiqotlar keyinchalik frazeologiyaga ham ko'chdi va tarkibida son komponenti bo'lgan frazeologizmlarning struktural-semantik va lingvomadaniy jihatlari alohida o'rganila boshlandi. Frazeologizmlarni quyidagi bir qator tamoyillarga ko'ra qiyoslanishi mumkin: frazeologizmlarning obrazligigi; frazeologizmlar ma'nolarini qayta aniqlash darajasi; frazeologizmlardagi komponentlar soni; frazeologizm komponentlarining joylanish tartibi; sintaktik aloqani ifodalash usuli; frazeologizmlar komponentlarining morfologik so'z turkumlari; frazeologizmlar komponentlarining kichik guruhlariga kirishiga ko'ra; frazeologizmlar komponentlari so'zlarning mavzusiga tegishli bo'lishi; variantlilik; ishlatilish chastotasi, kabilar.

Tadqiqodimizda keltirilgan frazeologizmlar tahlili ham yuqorida keltirilgani kabi tamoyillarga asoslangan:

- 1) frazeologizmlardagi komponentlar soni;
- 2) frazeologizmlar komponentlarining morfologik so'z turkumlari;
- 3) frazeologizmlar komponentlarining kichik guruhlariga kirishiga ko'ra tasnifi.

Biz ishimizda bu tamoyillarga asoslandik va ularni italyan va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologizmlarni qiyoslashda ancha qulay ekanligini aniqladik.

Ushbu bob bo'yicha xulosa sifatida yana shuni ta'kidlashimiz mumkinki, turli tillardagi frazeologizmlarni tasniflash juda ko'p sonli barqaror iboralarni tuzish va tizimlashtirishga yordam beradi, bu ularni o'rganishni tilshunoslar va tadqiqotchilar uchun yanada tushunarli qiladi.

- Frazeologizmlarning tarjimasini murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, manba va tillarning madaniy, lingvistik va pragmatik xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

- Frazeologik birliklarni ko'pincha semantik qoidalar bilan to'liq ochib bo'lmaydi va ularni madaniyat, aloqa va ijtimoiy kontekstida tahlil qilish kerak.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi quyidagi qismlardan iborat: **“Frazeologizmlarni lingvomadaniy aspektida o'rganilishi”**, **“Tarkibida “toq” sonlar keladigan italyan va o'zbek tillari frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlili”**, **“Tarkibida “juft” sonlar keladigan italyan va o'zbek tillari frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlili”**.

Frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritishda tilshunoslarning ilmiy tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega. Masalan, Federica Casadeining “Metafore ed espressioni idiomatiche: Uno studio semantico sull’italiano”<sup>20</sup> asari, italiyan tilidagi metafora va frazeologik iboralarga qaratilgan chuqur semantik tahlilni taqdim etadi. Bu kitobda, Casadei italiyan tilidagi metaforik va frazeologik strukturalarni o‘rganib, ularning ma’nosini, funksiyasini va tildagi rolini tahlil qiladi. U, bu iboralar qanday qilib til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni aks ettirishi, va ular qanday qilib odamlarning fikrlash va kommunikatsiya usullariga ta’sir qilishi mumkinligi haqidagi savollarga javob beradi. Ushbu asar orqali muallif frazeologik iboralarning qanday ishlatilishi va ular qanday qilib an’anaviy yoki madaniy ma’lumotlarni o‘z ichiga olishini tushuntiradi. Bu iboralar tilning boyligini va madaniyatning til orqali aks etishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, iboralarning ma’nosini, ular qanday kontekstlarda ishlatilishini va bu ifodalarning kommunikativ roli qanday bo‘lishini tahlil qiladi. Frazeologik iboralar qanday qilib italiyan madaniyatini va tarixiy kontekstni aks ettirishi haqida ma’lumot beradi. Casadeining asari, italiyan tilida ishlatiladigan metafora va frazeologik iboralarni chuqurroq tushunishga, ularning semantik va madaniy o‘ziga xosliklarini aniqlashga qaratilgan.

Har bir tilda ba’zi iboralar borki, ularni etimologiyasi izohlanganda, tushunish biroz murakkab bo‘ladi, bu nafaqat paydo bo‘lganligidan buyon juda ko‘p vaqt o‘tganligida emas, balki iborada keltirilayotgan so‘zlar arxaik tabiatga ega bo‘lishi mumkin. Yoki tasvirlanayotgan buyum biz ko‘rmagan, tasavvur qila olmaydigan, butunlay iste’moldan chiqib ketgan, qadimgi ish va mehnat quroli bo‘lsa, uni ko‘z oldimizda gavdalantira olmaymiz, yoxud biz ma’nosini bilmagan an’ana yoki odat bolishi mumkin. Shuning uchun hayotimizdagi mavjud buyum, tushunchalarga bog‘lay olmaymiz va talqin qilishda biroz qiynalishimiz mumkin. Ammo ushbu guruhga kelib chiqishi asrlarga borib taqaladigan, o‘sha davr kundalik hayotidagi faol sohalarga tegishli iboralar kiradi. O‘ziga xosligi shundaki, bu sohalarda hozirgi hayotimizda faol bo‘lmasada, lekin harholda mavjud sohalardir. Ma’nodan uzoqlashgan bo‘lsada, kelib chiqish tarixi bilan tanishgan har qanday kishi bu iboralarni tushunishda qiynalmaydi.

Masalan, quyida g‘ayrioddiy kuchlar, an’analar, aqidalar, kiyinish bilan bog‘liq, harbiy, diniy, teatr sohalari ichiga kiruvchi son qatnashgan iboralar tahlil qilindi. Bu sohalarda hozir ham bor, ayrimlari (diniy qarashlar, davlatlarga tinimsiz harbiy nizolar) ilgariydek faol bo‘lmasada, bugungi so‘zlovchilarning tushunchalaridan u qadar uzoq emas.

***Dare i numeri.*** *Finiamo la riunione, sono troppo stanco, ho iniziato a dare i numeri.* Yig‘lishni tugataylik, juda charchadim, nima deyotganimni o‘zim ham bilmay qoldim (charchoqdan).

***Avere i numeri.*** Biror kishining aynan bir ko‘zlangan maqsad, harakatning uddasidan chiqishiga ishonch bildirilganda ishlatiladi: *Hai i numeri per diventare una brava sarta. Perché non provi a fare un corso specifico di sartoria?* Yaxshi

---

<sup>20</sup> Federica Casadei. Metafore ed espressioni idiomatiche. Uno studio semantico sull’italiano. Roma: Bulzoni, 1996. – p.33.

tikuvchi bo‘lib yetishishing uchun barcha qobiliyatlarga egasan. Tikuvchilik kurslariga harakat qilib ko‘rsang bo‘lmaydimi?

Yuqoridagi ikki ibora kelib chiqish tarixiga ko‘ra ayni mavzu, lotareya o‘yiniga borib taqaladi. Aslida uning kelib chiqishi va unga o‘xshash o‘yinlar to‘g‘risida turli farazlar mavjud bo‘lsada, bu o‘yinning hozirgi shakli Italiyada, aynan Genuya shahrida (XVI asrda) ixtiro etilgan deyiladi. U hozirgacha italyan tarixi va madaniyatining bir qismi hisoblanadi. *Lotto nazionale* deb nomlanuvchi bu o‘yin butun mamlakat miqyosida o‘ynaladi va raqamlar butun Italiya bo‘yicha xarid qilinadi. Yutuvchi raqamlar televizor kanallarida, internetda yoki boshqa vositalar asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri e‘lon qilinadi. 90-yillardan to 2010 yilga qadar italyanlarni televizor oldida “sehrigan” dastur bo‘lib, g‘olib raqamlar to‘gridan-to‘g‘ri e‘firda e‘lon qilingan, Hozirda ham italyan shahar va mahallalarining tipik an‘anasi hisoblangan barlarga kirilsa, doimiy yoqilgan turadigan televizor va monitorlarni ko‘rish mumkin.

*Essere il numero uno*-Birinchilardan bo‘lmoq. Bu boraning rus va ingliz tillarida ham to‘gridan to‘g‘ri tarjimalari bor (to be the number one, bit nomerom odin)

*A tre cotte* - Bu o‘zbek tilidagi “ichidan pishgan” degan iboraga to‘g‘ri keladi. Puxta, ayyor ammo, ayyorlik darajasi “yupqa”, ya‘ni har qanday holatda ko‘zga tashlanmaydigan, vaziyatni baholagan holda bu qobiliyatini nozik va nafis tarzda qo‘llaydigan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

*Dare il cinque*<sup>21</sup>-“Beshni tashla” degan ibora juda ko‘p tillarda mavjud, lekin uning tarixi u qadar uzoq emas. Aslida o‘tgan asrning 20-yillariga taqalib, qora tanli jazz musiqachilari orasida konsert oxirida kutilgan natija qo‘lga kiritilganidan mamnunlik, a‘lo darajadagi namoyishdan faxrlanish maqsadida bir-birlariga qo‘l urishtirish odati bo‘lgan. Chunki qo‘ldagi besh barmoq birligi mukammallik timsolodir. Bu keyinchalik sport olamiga ham o‘tgan va asta-sekinlik bilan kundalik hayotga ham kirib, besh tashlash odati ham, iborasi ham butun dunyoda tarqalgan.

Raqamli komponentli iboralar birliklari keng komponentli frazeologizmlar guruhi sifatida eng samarali birlik sifatida qo‘llaniladi. Muloqot kontekstida son komponentli iboralarning qo‘llanilishi alohida mazmun-mohiyatni anglashda ixchamlik va yakdillikda ifodalashga xizmat qiladi. Masalan,

*Bir yoqda tursin – u yoqda tursin;*

*Bir yoqli bo‘lmoq – hal bo‘lmoq, bartaraf etilmoq;*

*Bir qulog‘idan kirib, ikkinchi qulog‘idan chiqib ketmoq-esdan chiqarmoq, unutmok;*

*Bir jon - Bir tan bo‘lmoq*<sup>22</sup> – hamjihat bo‘lmoq.

Bu kabi iboralarning tilshunoslikda turli ma‘no anglashilishida o‘zining boshqa birliklardan farqli jihati qisqaligi, muloqot uchun oson ifoda etilishi, xabar mazmuni boshqalar uchun tez tushunishga imkon berishini ko‘rishimiz mumkin.

<sup>21</sup> <https://context.reverso.net/traduzione/italiano-inglese/dare+il+cinque>

<sup>22</sup> Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati: – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.79.

Bugungi kunda turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar tafakkurining rivojlanish bosqichlarini, ularning madaniy-tarixiy an’analarini aniqlash maqsadida lingvokulturologiya kontekstida frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganishga tilshunoslarning qiziqishi ortib bormoqda va tilda aks ettirilgan o‘ziga xos dunyoqarash, shu bilan birga, ushbu tadqiqot usuli tahlil qilinayotgan tillarning qarindoshlik yoki bog‘liqlik darajasini va ular uchun umumiy bo‘lgan hodisalarning paydo bo‘lishining nisbiy xronologiyasini aniqlashga yordam beradi.

Jumladan bir soni ishtirokidagi iboralarga etibor beradigan bo‘lsak, masalan,

*Bir boshini ikkita qilmoq<sup>23</sup> – Boshi ikkita bo‘ldi.*

*Bir yostiqa bosh qo‘ymoq – Oilaviy hayot kechirmoq.*

*Bir yoqadan bosh chiqarmoq – Hamjihat/yakdil bo‘lmoq.*

*Bir pul bo‘lmoq – Barbod bo‘lmoq.*

Ko‘rinib turibdiki ushbu birliklarda keltirilgan misollarda ma’no anglashilishi, xabar mazmuni yoki birgina bir soni bilan berilgan iboralarda inson hayotidagi turli madaniy xususiyat til ifodasi orqali bir qancha ijtimoiy miqyosidagi jarayonlarni aks ettirmoqda.

## 5-jadval.

### Tarkibida “toq” sonlar keladigan italyan va o‘zbek tillari frazeologizmlarning qiyosiy jadvali:

<i>Italyan tilida “0” – nol sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>	<i>O‘zbek tilida “0” – nol sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>
<b>Partire da zero-</b> Noldan boshlamoq deb to‘gridan togri tarjima qilish mumkin. Rus tilida ham shunday tarjima qilinadi (nachat s nulya)	Noldan boshlamoq - Hech kimni yordamisiz, boshidan boshlamoq degan ma’nolarni ifodalaydi.
<i>Italyan tilida “1” – bir sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>	<i>O‘zbek tilida “1” – bir sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>
<b>Essere il numero uno-</b> Birinchilardan bo‘lmoq. Bu iboraning rus va ingliz tillarida ham to‘gridan to‘gri tarjimalari bor (to be the number one, bit nomerom odin)	Birinchilardan bo‘lmoq.
<i>Italyan tilida “5” – besh sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>	<i>O‘zbek tilida “5” – besh sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>
<b>Dare il cinque-</b> “Beshni tashla” degan ibora juda ko‘p tillarda mavjud,	-“Beshni tashla”
<i>Italyan tilida “7” – yetti sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>	<i>O‘zbek tilida “7” – yetti sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>
<b>Essere al settimo cielo-</b> Xursandchilkdan, baxtdan o‘zini yettinchi osmonda his qilmoq.	O‘zini yettinchi osmonda his qilmoq.

Quyida keltirilgan frazeologik iboralar kundalik nutqdagi eng ko‘p ishlatiladigan birliklar bo‘lishi bilan birga, mazmuniy tahlilga “muhtoj bo‘lmagan” iboralardir. Bu holatlarda ibora va u ifodalamoqchi bo‘lgan ko‘chma ma’no o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi. Bunga sabab faqat ushbu “zamonaviy” iboralarning

<sup>23</sup> Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati: – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.79.

lugʻaviy mazmuniga yaqinligida emas, balki ularning juda koʻpchilik tillarda togʻridan-toʻgʻri yoki shunga juda yaqin tarjimai, ekvivalenti borligidadir. Bu ekvivalent tarjimalar oʻrtasida doim ham biror bogʻliqlik bor deya olmaymiz, bu tasodif ham boʻlishi mumkin, lekin globalizasiya, bilingvizm kabi sabablari ham boʻlishi mumkin.

Sonlar inson tafakkurining konseptual tizimining muhim tarkibiy qismi, shuningdek, umuminsoniy tushuncha va ma'naviy madaniyatning asosiy unsuri hisoblanadi. Tadqiqot obyekti har xil sonli komponentli frazeologizmlarning (frazeologik iboralar) tadqiqi boʻlib, ular juft raqamlarni ham oʻz ichiga oladi. Masalan, *ikki bukilib – ortiq darajada egilib; ikki gapning birida – gap davomida qayta- qayta gapirmoq; ikki koʻzi toʻrt boʻlib – intizorlik bilan kutmoq; ikki oyogʻini bir etikka suqmoq – oʻz fikrining amalga oshirishini qaysarlik bilan talab qilmoq; ikki oyogʻini tirab olmoq – qaysarlik qilmoq; ikki ogʻiz – ozgina; ikki soʻzning birida – ikki gapning birida; ikki oʻrtada – ikki tarafning oʻrtasida qolmoq; ikki qoʻllab – hech qanday eʼtirozsiz; toʻrt koʻz bilan – intizorlik bilan; toʻrt koʻz boʻlib – koʻzi toʻrt boʻldi; toʻrt ogʻiz – bir oz; toʻrt tarafi qibla – qayoqqa xohlasa ketaversin; uch – toʻrt ogʻiz – toʻrt ogʻiz<sup>24</sup> ....*

## 6-jadval.

### Tarkibida “juft” sonlar keladigan italyan va oʻzbek tillari frazeologizmlarning qiyosiy jadvali:

<i>Italyan tilida “2” – ikki sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>	<i>Oʻzbek tilidagi muqobili</i>
<b><i>Avere due piedi in una scarpa</i></b> -Harakatlanish, qaror qabul qilish, oʻz fikrini ifoda etishda erkinlikka ega boʻlmashlik. Bir vaziyatdan chiqish yoʻli topolmaslik. Ikki oyogʻi bitta etikda.	Ikki oyogʻi bitta etikda.
<b><i>Roba da due soldi/ da quattro soldi.</i></b> “Bir pulga qimmat” yoki “bir tiyinga arzimaydi” deb izohlashimiz mumkin.	Bir pulga qimmat
<b><i>Prendere due piccioni con una fava</i></b> - Bir oʻq bilan ikki quyovni urmoq	Bir oʻq bilan ikki quyovni urmoq
<b><i>A due passi</i></b>	Ikki qadam narida/yaqinda
<i>Italyan tilida “10” – oʻn sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>	<i>Oʻzbek tilidagi muqobili</i>
<b><i>Contare fino a dieci</i></b>	Yetti oʻlchab bir kesish
<b><i>Tenere il piede in due scarpe/staffe</i></b> -Ibora ijobiy mazmunga ega emas, ayyor, soxta,manfaatlariga koʻra ish koʻradigan kishini ifodaydi. Yanayam aniqroq aytilsa, bir necha imkoniyatlar orasidan tanlash mumkin boʻlgan holda buni boshqalarga zarar keltirishini bila turib, hech bir variantdan voz kechmaslik, unisini ham, bunisini ham istash demakdir. Bu koʻproq, ayol va erkak orasidagi hissiy va ishqiy munosabatlarga nisbatan ishlatilib, bir vaqtning oʻzida bir nechta ayol bilan munosabat oʻrnatadigan erkaklar, yoki uylangan boʻla turib xiyonat qiluvchi, turmush oʻrtogʻdan ham, boshqa ayollardan ham voz kechmaydigan kishilarga ishlatiladi.	Besh barmogʻini ogʻziga tiqmoq

<sup>24</sup> Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., Oʻrazova I., Rixsiyeva K. Oʻzbek tili frazeologik lugʻati: – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.518.

<i>Italyan tilida “30” – o‘ttiz sonining frazeologik iboralar tarkibida kelishi</i>	<i>O‘zbek tilidagi muqobili</i>
<p><b>Fatto trenta, facciamo trentuno</b>-Biror harakatni bajarishda ma’lum bir chegara qo‘yilgan bo‘lsada, chegaradan sal oshilsa ham, o‘sha harakatni, ishni sifatliroq, yaxshiroq bajarish uchun da’vat tarzida ishlatiladi.</p> <p>Davlat katolik dini orqali boshqarilgan zamonlarda kardinallar davlat boshqaruvida juda muhim rol o‘ynashgan, ular hozirgi zamonaviy davlat tuzumiga qiyoslanadigan bo‘lsa, o‘sha davrning “vazirlari” deyish mumkin. Papa tomonidan shu o‘ringa loyiq deb hisoblangan kishilar saylangan, ularning har biri bir jabhani mas’uldori (iqtisod, moliya va hk) sifatida tayinlangan.</p> <p>XV-XVI asrlarda Papa Leone X ko‘pi bilan 30 ta kardinal tanlashga qaror qiladi, lekin mavjud vazifalar, mas’uliyatlarni hisobga olib, yana bitta kardinal yetishmayotgani ochiq tan olgan holda, 31 kardinalni tayinlaydi. Aytishlaricha, papa “30mi 31mi nima farqi bor” degan iborani qo‘llaydi. Yuqorida so‘z yuritayotgan ibora shu vaziyatdan kelib chiqqan degan taxminlar bor.</p> <p>Davlat katolik dini bilan boshqarilgan zamonlar orqaga qolgani ancha bo‘ldi, lekin Papa va kardinallar faoliyati Vatikan ichida o‘zgargani yo‘q, kardinallar papani, papa esa kardinalni saylaydi.</p> <p>Demoqchi bo‘lganimiz, katolik dini o‘rta asrlardagi kuchga ega bo‘lmasada, bunday iboralarning tarixi uzoq zamonlarga borib taqalsada, tadqiq orqali ko‘rish mumkinki, iboralarning bu qadar uzoq “umr ko‘rishi” o‘sha diniy an’ana yoki aqidaning aslida yo‘qolib ketmagani, hozirda ham mavjudligini ko‘rsatadi, aks holda ularni asosiy mazmunini tiklash oson kechmagan bo‘lard.</p>	<p>Qirqqa chidagan, qirq birga ham chida.</p>

Tahillardan ko‘rinib turibdiki, keltirilgan misollarda ma’no anglashilishi, xabar mazmuni yoki sonlar bilan berilgan frazeologik iboralarda inson hayotidagi turli madaniy xususiyat til ifodasi orqali bir qancha ijtimoiy miqyosidagi jarayonlarni aks ettirmoqda.

Bundan tashqari, son komponentli frazeologik iboralar orqali o‘rganilayotgan birliklar dunyoning umuminsoniy va etnospesifik xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Lingvistik universalliklar asosan turli etnik guruhlar kishilarining ruhiy bir xilligi asosida qurilgan modellarning bir xilligi bilan bog‘liq bo‘lib, etnospesifiklik esa o‘ziga xos xususiyatga ega. "ma'lum bir etnomadaniyat uchun eng muhim obyektlarni, faktlarni, hodisalarni ko‘rsatadigan" o‘ziga xos lingvistik tasvirlar bilan ifodalanadi. O‘rganilayotgan birliklar orasida shaxs va predmetning salbiy sifatlarini tavsiflovchi son komponentli birliklar ustunlik qiladi, bu esa son komponentli iboralarning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi.

Italyan va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlili quyidagi xuloslar bilan yakunlandi:

-frazologizmlar – bu ma'lum bir tilga xos, doimiy tuzilishga ega bo‘lgan iboralar bo‘lib, ular lug‘aviy ma'nosidan farq qiluvchi ma'nolarni ifodalaydi. Ularning o‘ziga xosligi va murakkabligi, asosan, milliy madaniyat bilan bog‘liqdir. Lingvomadaniy aspektida frazeologizmlarni o‘rganish, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani aniqlashga yordam beradi;

-frazologizmlar ko'pincha milliy ramzlar, simvollar va tasvirlar orqali ifodalanadi. Har bir xalqning o'ziga xos ramzlari mavjud bo'lib, ular frazeologizmlarda aks etadi;

-frazologizmlar tarixiy voqealarga ham bog'liqdir. Ular ko'pincha xalqning o'z tarixi, muammolar yoki ijtimoiy o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi;

-frazologizmlar ijtimoiy muloqotda muhim rol o'ynaydi. Ular insonlar o'rtasida yaqinlik, samimiylilik yoki qarama-qarshilikni ifodalashda ishlatiladi. Misol uchun, "bir yostiqa bosh qo'ygan" iborasi oilaviy ahillikni va yaqinlikni ko'rsatadi. Bu kabi iboralar odamlarning o'zaro munosabatlarini yanada kuchaytiradi;

-frazologizmlarni lingvomadaniy aspektda o'rganish, ularning lug'at ma'nosidan tashqari, madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstini ham o'rganishni talab qiladi;

-frazologizmlar til va madaniyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni aks ettiradi. Ular xalqning tarixiy tajribasini, urf-odatlarini va qadriyatlarini ifodalovchi kuchli vositadir;

-lingvomadaniy aspektda frazeologizmlarni o'rganish, nafaqat tilning o'ziga xos xususiyatlarini, balki millatning madaniyatini va ham chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, milliy va madaniy merosimizni saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega;

-son komponentli frazeologizmlar tahliliga doir tadqiqotlar muayyan xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini, ularga xos umumiy jihatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Turli tillar orasida ishlatiladigan bunday frazeologizmlarning lingvokulturologik nuqtai nazardan o'zaro mushtaraklik va tafovutlarini qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

## XULOSA

Italyan va o'zbek tillarida son so'z turkumiga oid frazeologizmlarning tadqiq etilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jahon tilshunosligida frazeologizmlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy ilmiy izlanishlarning yetakchi yo'nalishiga aylandi. Frazeologizmlar milliy tafakkur, madaniy kod va ramziy ma'nolarni ifodalovchi asosiy vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun turli tizimli tillarda ularning mazmuniy tabiati va madaniy xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy hamda kognitiv yondashuvlar asosida chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir.

2. Frazeologiya – ikki yoki undan ortiq so'zlarning mustahkam birikmasidan tashkil topib, o'ziga xos ko'chma ma'no hosil qiladigan va xalq tafakkuri hamda tarixiy tajribasini ifodalovchi til hodisalarini o'rganadigan sohadir. Frazeologik birliklar tilda ifoda aniqligi, barqarorlik va ramziy ma'no yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ular milliy ongning tarixiy qatlamlarini va xalqning emotsional-estetik dunyoqarashini aks ettirib, madaniy xotirani saqlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Frazeologiyani tadqiq etish, nafaqat tilning ma'no tizimini chuqurroq anglashga, balki turli jamoalarning madaniy qadriyatlari va dunyoqarashdagi o'ziga xosliklarni aniqlashga imkon beradi.

3. Frazelogizmlar – tilning barqaror va semantik yaxlit birliklari bo‘lib, ularning tarkibiy qismlari umumiy holda ko‘chma ma’no ifodalaydi. Ular xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini va e’tiqodlarini o‘zida aks ettirib, turg‘unligi, obrazlilik hamda emotsional-ekspressivligi bilan til boyligini shakllantiradi. Frazelogizmlar nafaqat til vositasi, balki madaniy axborotni uzatish va anglashning ham muhim omili sifatida maydonga chiqadi.

4. Frazelogizmlar frazeologik birlik, frazema va idiomalar kabi atamalar orqali tor (qat’iy birikmalar) yoki keng ma’nodagi (maqol va matallarni ham qamrab oluvchi) talqin etiladi. Ularning ma’no yaxlitligi va kontekstga bog‘liqligi lingvistik tadqiqotlarda muhim o‘rinni egallaydi. Frazelogizmlarni o‘rganish til tizimining murakkabligini va xalqning madaniy-tarixiy rivojlanishini tahlil qilish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.

5. Frazelogiya qadimdan tilshunoslikning muhim sohasi bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, XIX-XX asrlarda Charl Balli va V.V. Vinogradov kabi olimlar tomonidan nazariy asoslangan mustaqil fan sifatida shakllandi. Frazelogik birliklar milliy madaniyat, xalq tarixi va tilning obrazlilik qirralarini ifodalashda alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida frazeologik birliklarning murakkab tizimi yanada chuqurroq o‘rganilmoqda.

6. Frazelogiyaning rivojlanishi uch bosqichni qamrab oladi: XVIII-XIX asrlardagi dastlabki tadqiqotlar, XX asrning 30-50-yillarida mustaqil fan sifatida shakllanishi va hozirgi zamonaviy tadqiqot davri. Frazelogik birliklarning motivatsiya darajasi, ma’no yaxlitligi va kontekstga moslashuvchanligi tilda ularning alohida o‘rnini belgilaydi va ularni fanlararo tadqiqotlar uchun boy ilmiy manba sifatida taqdim etadi.

7. Frazelogizmlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va milliy mentalitetini ifodalovchi muhim til birliklari bo‘lib, ular milliy madaniyatning madaniy kodlarini saqlash va uzatishda xizmat qiladi. Shu bilan birga, frazeologizmlar kundalik muloqotda xalqning fikrini qisqacha, obrazli va ta’sirchan tarzda ifodalashda asosiy kommunikativ vosita sifatida ham ahamiyatlidir.

8. Frazelogizmlar har bir xalq hayoti davomida to‘plagan tajribalardan kelib chiqqan fikrlarni obrazli va hikmatli hamda ekspressiv tarzda ifodalaydigan iboralar yig‘indisi hisoblanadi.

9. Italyan va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik tasnifi o‘ziga xosdir. Har ikki tildagi frazeologizmlarda son komponenti ko‘pincha miqdoriy belgi emas, balki ramziy, obrazli va mental ma’nolarni ifodalovchi element sifatida ishtirok etadi. Jumladan, italyan tilida "fare quattro salti" (to‘rt marta sakrash – qisqacha dam olish) iborasidagi "to‘rt" soni, o‘zbek tilidagi "yetti uxlab" (ko‘p o‘ylab) iborasidagi "yetti" soni kabi birliklar son komponentining semantik kengayishini ko‘rsatadi.

10. O‘zbek tilida frazeologik birliklarda “toq” sonlar mutlaq va yakka mavjudlikni, “juft” sonlar esa barqarorlik va to‘liqlik kabi tushunchalarni ifodalaydi. Italyan tilida esa “toq” va “juft” sonlar o‘rtasidagi semantik tafovut aniq ko‘zga tashlanmaydi; ular ko‘proq ijtimoiy va emotsional kontekstlarda umumiy ramziy ma’nolarni anglatadi.

11. Son komponentli iboralar keng komponentli frazeologik birliklar guruhi sifatida eng samarali birlik sifatida qoʻllaniladi. Muloqot kontekstida son komponentli iboralarning qoʻllanilishi alohida mazmun-mohiyatni anglashda ixchamlik va yakdillikda ifodalashga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**ДЕНАУСКИЙ ИНСТИТУТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И  
ПЕДАГОГИКИ**

**ХУДАЙКУЛОВ БЕХЗОД АББОСОВИЧ**

**СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ  
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ИТАЛЬЯНСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ  
(НА ПРИМЕРЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ С ЧИСЛОВЫМ  
КОМПОНЕНТОМ)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительная лингвистика и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под № B2022.1.PhD/Fil2316.

Диссертация выполнена в Денауский институт предпринимательства и педагогики.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Олтиев Темир Жонимбоевич**  
кандидат филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Шамахмудова Азиза Фуркатовна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Раджабова Маржона Ахмадовна**  
доктор философии по филологическим наукам (PhD),  
доцент

**Ведущая организация:**

**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 17 » апреля 2026 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 233-78- 43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 62866). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан « 2 » апреля 2026 года.  
(Протокол реестра рассылки за № 19 от « 2 » апреля 2026 года).



**Н.З. Насруллаева**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдошов**

Секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

**Д.А. Киселёв**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Актуальность исследования фразеологизмов с числовым компонентом в мировой лингвистике проявляется в возможности раскрытия сложных взаимоотношений между языком и культурой. Числа в составе фразеологизмов передают не только количественное значение, но и отражают культурные коды народа, его исторический опыт и символическое наполнение. Сопоставление семантических особенностей чисел в разных языках позволяет выявить как универсальные, так и специфические черты национальных культур. Кроме того, такие исследования закладывают научную основу для анализа когнитивной и семантической структуры фразеологизмов, а также символических функций чисел в различных культурных контекстах. Таким образом, изучение фразеологизмов с числовым компонентом представляет собой значимое направление на стыке лингвистики, культурологии и когнитивных наук.

Изучение фразеологизмов с числовым компонентом в мировой лингвистике представляет собой актуальную проблему, связанную с пониманием народного мышления и культурного наследия. Числа в составе фразеологизмов не только передают количественное значение, но и несут символическую нагрузку, отражая мировоззрение, ценности и исторические представления народа. Однако их лингвокультурные особенности и функционирование в современной языковой системе остаются недостаточно изученными. В частности, сопоставление фразеологизмов узбекского и итальянского языков позволяет выявить символические функции чисел и когнитивные особенности их восприятия в разных культурах. В этом контексте системное исследование фразеологизмов с числовым компонентом приобретает особую значимость, поскольку способствует решению вопросов семантической эквивалентности в межкультурной коммуникации и переводе.

В нашей стране развитие системы преподавания иностранных языков приобретает особую значимость в условиях глобализации. Усиление международных связей, в том числе развитие отношений с Италией, способствует росту интереса к изучению итальянского языка. В этом процессе важную роль играет не только обучение иностранным языкам, но и исследование фразеологического фонда. В частности, лингвокультурный и фразеосемантический анализ фразеологических единиц, особенно содержащих числовой компонент, требует комплексного подхода. Как отметил глава нашего государства: «Мы поставили перед собой задачу войти в число развитых стран»<sup>25</sup>. С этой точки зрения современная лингвистика, углубленно изучая языковые явления и единицы, с использованием новых подходов способствует всестороннему раскрытию их общих и специфических аспектов.

---

<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan: “Bizning buyuk va dono xalqimiz o‘z tarixida sharaflı sahifalarnı ochishga qodir” // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, №19 (7490).

Настоящее диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-5847 от 8 августа 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в комплексных реформах, реализуемых в стране», ПП-54 от 2 февраля 2024 года «О дополнительных мерах по ускорению реформ в сфере образования», Постановления Кабинета министров Республики Узбекистан № 610 от 11 августа 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовнопросветительском развитии информированного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В мировой лингвистике изучение фразеологических единиц на протяжении многих лет остается в центре внимания исследователей. В проведенных до настоящего времени исследованиях подробно анализировались вопросы, связанные с формированием фразеологизмов, их характерными особенностями, этапами развития, стилистическими свойствами, этимологией и сочетаемостью<sup>26</sup>. Кроме того, путем сопоставления фразеологических выражений в различных языках были выявлены их общие и уникальные черты. В частности, такие

---

